

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA WEB TEXNOLOGIYALARINI O'QITISH METODIKASINI RIVOJLANTIRISH

Sulaymonova Dildora Ne'matovna

Buxoro innovatsiyalar universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11575822>

Annotatsiya. maqolada informatika darslarida zamonaviy ta'lim yondashuvlari, darsga qo'yilgan talablar, o'qituvchining kompetentligi, o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayoni innovatsion faoliyat tuzilmasini modellashtirish, umumiy o'rta ta'lim maktablarida web texnologiyalarini o'qitish metodikasini rivojlantirish, informatika fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashning dolzarbligi va bunga erishish bosqichlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion faoliyat, dasturlash, kasbiy bilim, qobiliyat, intellektual xususiyat, bilim darajasi.

Аннотация. в статье рассматриваются современные образовательные подходы на уроках информатики, требования к уроку, компетентность учителя, процесс профессионального становления учителя моделирование структуры инновационной деятельности, разработка методики обучения web-технологиям в общеобразовательных школах, актуальность подготовки учителей информатики к инновационной деятельности и этапы ее достижения.

Ключевые слова: инновация, инновационная деятельность, Программирование, профессиональные знания, способности, интеллектуальный характер, уровень знаний.

Annotation. the article will talk about modern educational approaches in Informatics lessons, requirements for the lesson, teacher competence, modeling the structure of innovative activity of the teacher's professional formation process, the development of the methodology for teaching web technologies in general secondary schools, the relevance of preparing teachers of informatics for innovative activities and the stages of achieving this.

Keywords: innovation, innovative activity, programming, professional knowledge, ability, intellectual property, level of knowledge.


Mamlakatimizda dasturchilarini yetishtirib chiqarish zamon talabiga mos ravishda tashkil etilib, bu borada salmoqli ishlar olib borilayotganligiga qaramasdan, hozirgacha bir kator muammolar o'z yechimini topgani yo'q. Xususan, chuqur bilimli hamda malakali dasturchilarni tayyorlashga imkon beruvchi jahon andozalariga mos pedagogik shart-sharoitlarni yaratish; mazkur jarayonni metodik jixatdan to'g'ri tashkil etish; dasturlash tillarini o'rgatuvchi

o'quv fanlaridan kasbiy bilim va malakalarni shakllantiruvchi, o'quvchining qobiliyati, intellektual xususiyati, bilim darajasini xisobga olib ta'lim beradigan elektron darsik yaratish kabi masalalarni shular qatoriga qo'shish mumkin.

Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshchiligida 2019 yil 19 mart kunda o'tkazilgan Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va bo'sh vaqtlarida madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitobxonlikka qiziqtirish maqsadida 5ta muhim tashabbusni amalga oshirish to'g'risidagi videoselektorda respublika viloyatlarining barcha shahar va tumanlarida "Raqqamli texnologiyalar o'quv markazlari"ni va IT parklarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. 2019 yil 21-noyabrda Toshkent shahridagi Inha universitetida "Bir Million O'zbek Dasturchilar" deb nomlanuvchi loyihasi ishga tushurildi. Bundan kelib chiqadiki, bugungi kunda umta'lim maktablarda informatika va zamonaviy axborot texnologiyalari fanlarini innovatsion usulda o'qitish dolzarb masala hisoblanadi.

Jahon pedagogikasi amaliyotida qator olimlar, jumladan, M. V. Bulanova-Toporkova va boshqalar o'qituvchining axborot texnologiyalari sohasidagi bilimdonligini quyidagi sifatlar bilan baholaydilar:

- zamonaviy axborot muhitida faoliyat tajribasini baholash va integratsiyalashga qodirlik;
 - shaxsiy ijodiy sifatlarini rivojlantirishga intilish;
 - umumiy kommunikativ (o'zaro muloqot qilish) madaniyatining yuqori darajada bo'lishi;
 - axborot vositasida o'zaro birlashib xatti-harakatlarni bajarish masalasida nazariy
 - tushunchalarning va uni tashkillashtirish tajribasining bo'lishi;
 - o'zini refleksiylash (o'z ruhiy holatini tahlil qilish) ehtiyojining bo'lishi;
 - axborotni qabul qilish, tanlash, saqlash, qayta tiklash, taqdim etish usullarini, uni o'zgartirish, uzatish va integratsiyalash madaniyatini o'zlashtirish.
- V. K. Selevko esa o'qituvchining kompyuter savodxonligini:
- kompyuterli texnologiya mazmunining muhim qismi deb hisoblaydi va uning tarkibiga quyidagilarni kiritadi:
 - informatika va hisoblash texnikasining asosiy tushunchalarini bilish;
 - kompyuterli texnikaning umumiy tuzilishi va funksional imkoniyatlarini bilish;
 - zamonaviy operatsion tizimlarni bilish;
 - umumiy vazifa bajaradigan zamonaviy dasturning qobiqlar va operatsion



- vositalarini (Norton Commander, Windows va boshqalarini) bilish hamda ularning vazifalarini o'zlashtirish;
- hech bo'lmaganda bir matn redaktorini o'zlashtirganlik;
 - dasturlashtirish algoritmlari, tillari va paketlari haqidagi boshlang'ich tasavvurlarining bo'lishi;
 - utilitar (amaliy foyda beradigan) vazifalarini bajaradigan amaliy
 - dasturlaridan foydalanishning boshlang'ich tajribasi.

Axborot texnologiyalarining asbob-uskuna va dasturiy vositalarining juda jadallik bilan rivojlanib borishi, masalan, yangi avlod kompyuterlarining, yangi dasturlarining chiqishi, turli ta'limiy vazifalarni hal etish qulay texnikafiy imkoniyatlar ochib beradi.

Biz innovatsion faoliyatni ta'lim muassasalarini rivojlanish rejimidagi faoliyatining bir jihati sifatida tasavvur qilamiz. Innovatsion faoliyat deganda, ijobiy sifat o'zgarishlari bilan tavsiflanuvchi ma'lum bir bosqichlar ketma-ketligi tushuniladi. Bu faoliyat aniq bir ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda tan olingan standartni ifoda etuvchi me'yordan chetga chiqishni, muqobil me'yorlarni joriy etishni, boshqa sohalaridagi me'yorlardan foydalanishni nazarda tutadi. U rivojlanish uchun kerak bo'lgan vositalar to'plamini ta'minlaydi, pedagogik voqelikni ongli ravishda o'zgartirishni ifoda etadi.

Pedagogning innovatsion faoliyati har bir tarbiyalanuvchining ijod jarayoni va butun pedagogik jamoaning ijod jarayoni bilan uyg'unlashgan holda olib borilishi kerak. Pedagogning ijodiy harakatlari butun jamoaning izlanishlari bilan muvofiqlashtirilmasa, pedagogik yangiliklar joriy qilish yaxlit, sermahsul jarayon bo'la olmaydi.

Ta'lim muassasalarida ham innovatsion faoliyatga zaruriyat tug'iladi. Bu faoliyat hamisha qarama-qarshi ziddiyatli bo'lib, uning o'zi ziddiyatlarni keltirib chiqaradi va bu ziddiyatlarni hal etish orqali rivojlanib boradi. Shuning uchun maktab xodimi – innovator “xavfsiz sinovlvr o'tkazish” psixologiyasining bilimdoni bo'lishi kerak.

Bundan tashqari pedagogik nashrlarda ko'p marta qayd etilganidek, maktab ta'limini o'zgartirish borasidagi harakatlarga nafaqat alohida odamlar tomonidan, balki bu birmuncha xavfli - o'qituvchilar jamoasi tomonidan kasbiy guruh sifatida ko'rsatilayotgan qarshilikni ham e'tiborga olish kerak. Chunki maktabda o'zgartirishlar jarayonini boshlash g'oyasiga ishonqiramay qarashlar, keyinchalik uning yo'lini to'sib qo'yishlar mumkin. Albatta o'qituvchilarning



innovatsion jarayonga kerakli munosabatini qandaydir vaqt davomida ishontirish, me'yoriy yondashuv va majburlash orqali ta'minlash mumkin.

Innovatsion faoliyat o'quvchilar bilan bevosita o'zaro ta'sir davomida kechadi, shuning uchun pedagogdan o'zining ruhiy holatini boshqara olish, o'zida va faoliyat ishtirokchilari bo'lgan o'quvchilarda tezkorlik bilan ijodiy hissiyotni uyg'ota olish, pedagogik aloqada ijodiy jarayonni amalga oshirishni talab qiladi. Innovatsion jarayon ushbu kasbiy xususiyatlari pedagog faoliyati mazmuniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchini aniq maqsadni ko'zlagan holda innovatsion faoliyatga tayyorlash – bu yaxlit, bir butun jarayon. U o'zaro bog'liq va bir – biri bilan shartlangan ikki davrdan tashkil topgan: oliy ta'lim muassasalarida o'qitish hamda tarbiyalash, shuningdek, maxsus muassasalarda o'qitish va maktabdagi amaliy pedagogik faoliyatning o'zaro almashib kelishi asosida tashkil qilingan OTMdan keyingi ta'lim. Qayd etib o'tilgan davrlarni o'qituvchi shaxsini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishning yaxlit jarayoniga birlashtirilishi – uning innovatsion faoliyatga kiritishning asosidir. Ammo bizning tadqiqotimiz uchun bu davrlarning birinchisi muhimroq, chunki bo'lg'usi o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayoni innovatsion faoliyat tuzilmasini modellashtirgan holda oliy ta'lim muassasalarida o'qitish shart-sharoitida muvaffaqiyatli va to'laqonli kechadi.

V.A.Slastenin tadqiqotlariga ko'ra, o'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ketma-ketligi quyidagi bosqichlardan iborat:

- Birinchi bosqich - o'qituvchining ijodiy individualligini rivojlantirish, talabalarda ijodiy pedagogik masalalarni aniqlash, ifodalash, tahlil qilish va echish qobiliyatini shakllantirish, shuningdek, ijodiy izlanishning umumiy texnologiyasini rivojlantirish: ilgari egallangan bilim va ko'nikmalarni yangi vaziyatga mustaqil ko'chirish, tanish vaziyatlarda muammoni ob'ektning yangi funktsiyasini ko'ra olish, ob'ekt tuzilmasini aniqlay olish, muqobil echim yoki uning usulini topish, ilgari egallangan faoliyat usullarini vujudga kelgan muammo echimida qo'llay olish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish.

- Ikkinchi bosqich - ilmiy bilish metodologiyasi, pedagogik tadqiqot, innovatsion pedagogikaga kirish asoslarini egallash. Talabalar innovatsion pedagogikaning vujudga kelishidagi ijtimoiy va ilmiy sabablar, uning asosiy tushunchalari bilan tanishishadi, maktabni tashkil etishga oid muqobil yondashuvlarni ijodiy izohlashga harakat qilishadi, muqobil maktablarni rivojlantirishning asosiy manbalarini o'rganishadi, innovatsion o'quv muassasalarining turli turlari bilan tanishishadi va hokazo.

- Uchingchi bosqich – innovatsion faoliyat texnologiyasini o'zgartirish. Talabalar maktabdagi sinov ishlari bosqichlari bilan, mualliflik dasturlarini tuzish metodikasi bilan tanishishadi, mualliflik dasturlarini tuzishda ishtirok etishadi, yangiliklarning keyingi rivojlanishlarini, ularni joriy qilishdagi qiyinchiliklarni tahlil va bashorat qilishadi.

To'rtinchi bosqich - yangilikni pedagogik jarayonga joriy qilish bo'yicha sinov maydonidagi amaliy ishlar, tuzatishlar kiritish, sinov natijalarini kuzatib borish, kasbiy faoliyatni mustaqil tahlil qilish. Bu bosqichda o'qituvchining innovatsion munosabati yangilikka nisbatan qarashlari va ko'rsatmalari tizim sifatida shakllanadi.

Davr ruhini ifodalab, kun sayin barcha soalar amaliyotiga jadal kirib borayotgan axborot texnologiyalarini umumta'lim maktablari ta'lim jarayoniga ham tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Butun jahon miqyosidagi axborot tarmog'i har qanday sohada axborotning hajmi va tezligidan qat'iy nazar, uni istagan miqdorda qabul qilish uchun taqdim eta oladi. Multimediya va Internet texnologiyalarining paydo bo'lishi axborot texnologiyalarining umumiy ta'lim maktablari ta'lim va tarbiya, muloqot jarayonlarida samarali vosita sifatida foydalanishga keng yo'l ochib berdi. Axborot texnologiyalarining barkamol shaxsni rivojlantirish, uning mustaqil kasb tanlashi va kasbiy jihatdan o'z-o'zini shakllantirish, kasbiy mahoratini o'stirishda tutayotgan o'rni va ta'siri ortib borayotganligini inkor etib bo'lmaydi. Umumiy ta'lim maktablaridagi ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari vositasida o'qituvchi va o'quvchilar oldida quyidagi imkoniyatlar ochiladi, xususan:

- axborot yig'ishning yangi usullarini va ularni qo'llashni bilib oladilar;
 - bolalarning fikrlash doirasi kengayadi, bilim olishga qiziqishlari ortadi;
 - mustaqil ishlashning roli ortadi, samaradorligi yaxshilanadi;
- bolani aqliy jihatdan rivojlantirishga, hissiy-estetik doirasini kengaytirishga, ijobiy qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. David Watson and Helen Williams Computer Science//IGCSE is the registered trademark of Cambridge International Examinations. Buyuk Britaniya /Hodder Education. An Hachette UK Company London NW1 3BH 2014, 278p.
2. Stelle Cottrell, Neil Morris Study Skills Connected. Buyuk Britaniya /Palgrave Macmillan 2013, 183p.
3. Hartoyo. (2012). ICT in Language Learning. Semarang: PelitaInsani Printing and Publishing